



SAMARQAND VILOYATI TOPONIMYASI

Bobomurodova Sabrina

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Samarqand qadimiy va navqiron shahar. Samarqandni "Sayqali ro'yi zamin" deb e'tirof Samarqand viloyati hududi Zarafshon daryosi havzasining o'rta qismida joylashgan. Viloyat toponimyasining asosiy qismi o'zbekcha nomlar tashkil qiladi. Shu bilan birga sug'diy, tojikcha nomlar ham talaygina. Qadimiy Sug'diyona davlatining markazi bo'lganligi uchun Samarqand boshqa hududlarga nisbatan sug'diy nomlar ko'proq duch Samarqand ikki mingdan ortiq aholi punktlari (oykonimlar) bor, ularning har biri alohida-alohida nom va tarixga ega.

Mintaqa oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri etnooykonimlar ko'pligi alohida ahamiyati bilan ajralib turadi. Masalan aholi punktlari nomlari urug' qabila nomlari G'azalkentda- 20 %, Payariqda -25 %, Ishtixon- 33% Bulung'ur -40%, Jomboy -45 %, Qo'shrabot -35 %, Kattaqo'rg'on- 30% Narpayda -32% Nurobod -23 %, Oqdaryo -24%, Pastdarg'om -31% Paxtachi -34 %, Toyloq-30% va Urgutda -28 % tashkil qiladi.

Mutaxassislarning hisob- kitoblariga ko'ra , o'tmishda mintaqa etnooykonimlar soni bundan ham ko'p bo'lgan. XIX asr oxirida Zarafshon vodiysida kelgan rus tadqiqotchisi Н.Ф.Ситняковский 2800 ko'proq qishloqlarni ro'yxatga olgan va ularning 3/1 qismini etnik guruh nomlari bilan Samarqand viloyati etnooykonimlar bo'yicha O'zbekiston Janubiy viloyatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Samarqand viloyati oronimlari tarkibida o'ziga xos geografik terminlar uchraydi. Oronimlar yer yuzasining past balandlik relyef shakllari. Ularga jar , qir , to, daryo, jamiyki tabiiy obyektlarni misol qilib keltirish mumkin. Mintaqada Avg'a, abg'a (Ag'va dovoni), Bel (O'rta bel), guzar (Qoraguzar), gaza (Qumgaza), qiya (Qoraqiya), qir (Jarqir), tov (Oqtov) kabi terminlar keng tarqalgan. Oronimlar mahalliy shevalarda ham yaratilgan. Ularga Saylov, Jomonjar, Jallaqtepa, Shishimo'la , Bolqontov kabi nomlar yaqqol misol bo'ladi.

Oronimlar orasida hayvonot olami, o'simliklar, uru-qabila nomlar bilan atalgan oronimik nomlar ham ko'p uchraydi. Irg'ayli to'g'i, G'ujum tog'lari, Qarjig'ay , Alqortepa kabi nomlar yaqqol misol Samarqand viloyatida metamorfik-majoziy nomlar ham ko'p uchraydi. Qarmoya , Qoraqiya, Ayg'irtepa (ulkan, katta) kabi nomlarni kiritsa bo'ladi.

Viloyat gidronimlari orasida Zarafshon daryosini ta'kidlash o'tish joiz. Daryo XVIII asrda Zarafshon tojikcha (tojikcha zar- soluvchi) deb ataladi. Tarixiy manbalarda daryo Politimet. Namiq, Rudi Mosof, Xaromkom, Naxri Buxoro, Obi Jizzax nomlari bilan tilag olinadi. Qadimgi gidronilga Payariq , Narpay, Darg'om kanallarini kiritish mumkin. Narpay (arabcha naxr - katta, ariq - kanal), Payariq nomi Narpay nomining turkiy varianti Zarafshon daryosining qadimiy suv boshlanadigan suv inshootlaridan yana biri Bulung'ur kanalidir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha Bulung'ur mug'ulcha "loyqa suv" ma'nosini beradi. S . Qorayevning yozishicha , viloyatida mahalliy shevalarda yaratilgan



gidronimlar juda ko'pchilikni tashkil etadi.Ular qatoriga Juyruqsoy- tezoqarsoy, Buyruqsoy- boshi berk soy,Toshhovut- tosh hovuz kabi gidronimlarni keltirish mumkin.G'aybot,Parandas,Lexana, kabi mavhumlashgan nomlar etimologik izlanishlar muhtoj hisoblanadi.

Mutaxassislarning aytganlaridek Samarqand viloyati toponimyasi ko'p asrlik tarixga ega.

Ular orasida sug'diy, forsiy, forsiy -tojik nomlari salmoqli o'ringa ega. Xususan Samarqand shahari urbonimlarning tojikcha so'zlar ko'p uchraydi.Ular qatorida 100 ga yaqin mahalla,guzar nomlarini kiritish mumkin.Masalan Sharbatdor-qandolatchilar,Zardo'zan-Zardo'zlar,

Kulolon- Kulollar, Charmgaron -,ko'nychilar va hakazo.Konigil ,Cho'ponota, Moturidiy.

Umuman olganda Samarqand toponimyasi O'zbekiston ajralmas bir bo'lagi hisoblangan.

Hozirda viloyat toponimyasi asosiy qismini o'zbekcha nomlar tashkil qiladi. Viloyatda yangi tashkil etilayotgan geografik obyektlarga berilayotgan nomlarining asosiy qismini amaldagi huquqiy -meyoriy hujjatlar talablariga javob beradigan nomlar qo'yilmoqda. Yozilishi xunuk,yoki eshitganda quloq yomon chalinadigan nomlar o'zgartirilmoqda. Sobiq Ittifoq davrida qo'yilgan nomlar o'zbekchalashtirilmoqda.Misol uchun Aroqzavof,Sibiriskiy,Pavorod va hokazo.

Samarqand toponimi Samarqand shahri O'rta Osiyo eng qadimgi shaharlaridan biridir.Viloyatning ma'muriy , iqtisodiy, madaniy markazi.1924-1930 yillarda O'zbekistonning poytaxti bo'lgan.

Samarqand viloyatining bunyod etilgan vaqtining aniq etimologiyasi yo'q.Shahar Iskandar Zulqarnayn yurishlari bilan ilk bor millodan avvalgi 329- yilda yunon yilnomalarida Maroqand deb qayd etilgan.

Turli davrlarga tegishli manbalar shahar nomini Samarkana, Samariya ,Chimkent,Sakanna Saramanka,Sanmangen,Samarkiyan,Sulton,Samarqand,Sumroyat shakllarida tilga olingan.

Milodiy 8- asrga tegishli sug'd hujjatlarida Samarkana, Venitsiyalik sayyoh Marko Polo(13asr)

kitobida Sanmarkan deb tilga olinadi.

Suyun Qorayevning yozishicha shahar nomini deyarli barchasi "S" harfi bilan boshlanganligi e'tirof etiladi.Faqat Maroqand bundan mustasno.

Demak yunonlar bu so'zni yaxshi eshitmaganlar S harfi tishini orasida aytilmagan ilg'amaganlar.

Bu fikrni yunon olimi Y.Ivanologispalos ma'qullangan.Ayrim yevropalik olimlar bu nom qadimdan qolgan sanskritcha Samariyaga yaqin ya'ni "yig'in ", "Anjuman" so'zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Bazi olimlar bu nomning bir qismi "Samar" qismi ismga "qand " qismi shahar manosiga qiyoslashadi.Lekin tarixiy manbalarda bunday kishi nomi qayd etilmagan.Bu doir bir qator afsonalar bor.Samar ismli yigit shahar barpo qiladi.Suv chiqaradi . Odamlar asta sekin ko'chib kelib shahar barpo bo'ladi, degan taxminlar uchrab turadi.Samarkand "Semizkent" semiz shahar - katta shahar manosida degan fikrni bildirgan Mirxodning "Razvat us safo" asarida



ispan elchisi Rui Gonsales Klavdixovning shaharning asl ma'nosi emas balki uning sifati degan kitobida shaharning nomi emas, uning sifati muhim o'rinda turgan shahar deb ataladi.

Samarqand etimologiyasi haqida ko'plar mulohazalar va tortishishlar bor .U izlanishlarga juda muhtoj.Biz hammasini o'rganib o'zimizga to'g'ri keladigani olamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Suyun Qorayev"Toponimika " Toshkent.O'quv uslubiy qo'llanma.
2. Hakimov _Q_M "Toponimika" darslik 5110500 geografiya o'qitish metodikasi talabalar uchun darslik Toshkent " Mumtoz So'z " 2016-yil.
3. P N G'ulomov Toponimika va geografik terminshunoslik 2016